

Xo'jamiyoro'va Gulmira Abdusalom qizi

Termiz davlat Pedagogika instituti Tillar fakulteti 3-bosqich talabasi

SAIDA ZUNNUHOVA IJODIDAGI POETIK MAHORAT

ANNOTATSIIYA: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yorqin vakilasi, iste'dodli shoira Saida Zunnunova ijodi xususida so'z yuritiladi. Shoira ijodidagi rang-barang tasvirlar, poetik mahorat va she'rlarining mavzu ko'lami yoritib boriladi.

KALIT SO'ZLAR: ayol madhi, o'tkinchi umr, halol mehnat, sadoqat, qanoat, vafo, poetik mahorat.

Qadrlasang insonligingni,

Vafo qilsang o'zingga o'zing,

Faqat-faqat shunda men bilan,

To'g'ri kelur taqdir - yulduzing.

Ayol — ona yurtning qizi, ayol — xalqning ilm-ma'rifat taratuvchisi, ayol — ona, opa, singil, hamroh, suyuqli yor. Bir so'z bilan aytganda ayol ta'riflab bo'lmaz xilqatdir. Uning sabri, matonati, kuchli irodasi, vafosi-yu qanoatligi, sadoqatda tengsiz muhabbati oldida butun borliq bosh egadirlar. Stiv Marobali ta'biri bilan aytganda: "Ayol samimiyligi kamdan-kam uchraydigan, ammo hech bir go'zallik bilan tenglashtirib bo'lmaydigan holat. Ayolning soxta fe'l-atvordan holi bo'lishi undagi har qanday kamko'stni yopib ketadi. Men mana shunday sodda, samimiy ayollarda chinakam go'zallikning guvohi bo'laman." Ha, o'zbek adabiyoti shunday chamanzorki, uning bo'stonida gul ko'p, chechak ko'p. Bu bo'stonda bir-biriga o'xshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan go'zal hamda betakror shoir va yozuvchilarimiz, adib-u shoirlarimiz borki, ular bilan dillar nurafshon, ko'ngillar chaman, adabiyotimiz esa chamanzordir. Yuqorida keltirilgan chinakam sodda, samimiy ayol tasviri — Saida Zunnunovaga xosdir. Shoirada haqiqiy ayollarga xos bo'lgan yuksak sadoqat, jasorat, Vatanparvarlik mujassam. Shu o'rinda buyuk adibimiz G'afur G'ulomning iste'dodli shoiramiz to'g'risida bildirgan fikrlariga tan bermay ilojimiz yo'q: "U xotin-qizlarga xos nazokat, ifodday tatimli lirikasi bilan dillarimizni erkalatib, hordiqalarimizni yozib, mehnatga rag'batimizni toblantirib, idrokimizni go'zalliklar tomon yetaklaydigan rahmli shoiramiz bo'lib yetishdi."

Saida Zunnunova ijodida, asosan, yoshlik sururi, Vatan shukuhi va mehnat zavqini tarannum etadi. Shoira nafaqat nazmda, balki nasrda ham samarali ijod qilgan. U ko'proq lirik dostonlar yaratgan. Iste'dodli shoirani xoh nasrda, xoh nazmda bo'lsin ma'lum bir kichik voqea-hodisa uni ruhlantiradi, ijodga undaydi, ichki kechinmalarini junbushga keltiradi va shu asnoda yurak tug'yonlari, go'zal hissiyotlari bilan bezalgan ijod namunalari dunyoga keladi. Bilamizki, shoira o'zbek adabiyotining yana bir taniqli vakili Said Ahmadning turmush o'rtog'idir. Ularning hayot yo'llari, garchi ko'plab qiyinchiliklarda, mashaqqat-u sinovlarda o'tgan bo'lsa-da, shu vaziyatda ham Saida bu sinovlarga yengilmadi, o'z sadoqatini, ayollarga xos jasoratini namoyon eta oldi va eng muhimi ortga chekinmadi.

Turmush o'rtog'i Said Ahmadga "Vatan xoini" degan ayblov bilan uni qamoqxonaga olib ketadilar. Va shoirani uning o'z turmush o'rtog'idan voz kechishini aytib qancha tazyiqlar o'tkazmadi deysiz? Ha, bizning qahramon shoiramiz esa bu tazyiqlarga yengilmadi va haqiqiy vafo timsoliga aylandi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shoirning o'zi ham bir she'rda "Sadoqatda bir umr qolgum" deya o'z sadoqatini ifoda etadi. Saida Zunnunova hayoti davomida qanchalik murakkabliklarga duch kelmasin, hayotda ham,

ijodda ham hech qachon oson yo'lni tanlab ketgan emas. Shoira haqida aytilgan quyidagi fikrlar ham buning yaqqol isbotidir. "... Yolg'izlikda fikr, xayol, so'z bilan olishuv mashaqqatisiz hech qachon san'at asari yaratilgan emas, yaratilmaydi ham. Saida Zunnunova ham yuraklarga Obi hayot yanglig' ta'sir qiladigan so'zlar qudug'ini rostdan ham igna bilan qazidi va shu mashaqqatdan hech bir vaqt begonasiramadi, undan o'zini olib qochmadi, yengilroq yo'llarni axtarmadi." Shu o'rinda shoira buyuk misralariga to'xtalib o'tamiz.

Kurashsiz, mehnatsiz shodlik, kulguni,

O'g'irlik mol deyman, qilaman hazar.

Qalbimning parchasi singmasa agar

Rozimasman birov hadya etsa zar.

Hech bir inson hayotda boshqa birovning qilgan mehnati, mashaqqati evaziga quvonch hissini tuya olmaydi. "Mehnatning tagi rohat" deganlaridek, qachonki inson bir ishga borini berib, sidqidildan harakat qilsagina natijasi ham go'zal va inson uchun qadrli bo'ladi. Saida Zunnunova ham yuqoridagi misralar orqali shunday demoqchi. Bundan tashqari shoira she'rlaridan birida:

"Hayotdan nolisa birov, suymayman,

Ayniqsa, sog' bo'lsa, qo'li, oyog'i."

— deya sog'-salomat, to'rt muchasi sog' bo'laturib, doim hayotdan nolib yashaydigan, shukronalik neligini bilmaydigan insonlarni qoralaydi. Ijodkorning dunyosi o'zgacha. U go'yoki o'zgacha olam bag'rida yashaydi. Uning she'rlari, yaratgan asarlari esa shoira haqiqiy holatini, ichki kechinmalarini, qalb tug'yonlarini ifoda etadi.

Ibrohim G'ofurov. Adabiyot. Darslik. 7-sinf. 2021

Saida Zunnunovaning "So'nggi yo'l" she'ri esa insonni haqiqatda o'yga chorlaydi. Ushbu she'rda inson zotining bu dunyoda o'tkinchiligi, har kun oramizdan kimningdir bu dunyoni tark etishi, insonlarni ketganida emas borida qadrlash, qadriga yetish, "so'nggi yo'l" odamzot uchun muqarrar ekanligi haqida so'z yuritiladi.

Ammo, men istardim, yurak shu topda

O'z-o'ziga shunday berolsa hisob:

Dardin eshitdingmi tirikligida?

Biron shodlik kuni gul tutganmiding?

Yoki o'sha kunni unutganmiding?

Qadriga yetdingmi tirikligida?

Shu so'roqqa tutsa ko'nglimiz bizni,



Balki o‘lim yana ketardi yiroq.
Odamlar! Qadrlang bir-biringizni,
Gul ham, muhabbat ham tirikka kerak.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, she’riyat insonni davolaydi, unga ruh, qanot bag‘ishlaydi. Saida Zunnunova yaratgan she’riy namunalar, asarlar ham xuddi shunday ijod namunasidir. Bugungi kunda biz yoshlarning burchimiz va vazifamiz mana shunday iste’dodli, jonkuyar, Vatanparvar ijodkorlarimizning ijodini o‘rganish va ularning izlanuvchan izdoshlari bo‘lishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyot. Darslik. 7-sinf. 2021.
2. Ibrohim G‘ofurov. Adabiyot. Darslik qo‘llanma 2021.
3. Saida Zunnunova "Yangi she’rlar" 1950.